

Dastlabki ma'lumotlar

## 2020- yil yanvar-avgust oylarida Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rinni tutadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

### 2020- yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar

**Xizmatlar sohasi**—bu korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infra tuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumдорligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

**2020- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra,  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

Ularning umumiyligi  
sonidagi ulushi

O'tgan yilning shu davriga  
nisbatan o'sish sur'atlari



2020- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 9,4 mingtaga yetdi yoki ularning umumiyligi sonini 63,3 % ini tashkil etdi. 2019- yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 24,5 % ga oshdi.

Dastlabki ma'lumotlar

## Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1959,3 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 231,4 mlrd. so'mga oshdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,4 % ni tashkil etdi.




**Xizmatlar**-iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayriboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib, viloyat iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

Xizmatlarning umumiyligi Guliston shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 58,4 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Dastlabki ma'lumotlar

**Tuman va shaharlар kesimida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2020- yil yanvar-avgust oylarida)**




Eng katta ulush Guliston (58,4 %), Yangiyer (6,4 %) shaharlari, Sirdaryo (10,6 %) va Mirzaobod (4,4 %) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Shirin (3,0 %) shahri, Oqoltin (2,1 %), Sardoba (2,5 %), Guliston (2,8 %) tumanlarida kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:** 2019- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmida Guliston shahrining ulushi 51,5 % ni tashkil etgan.  
Oqoltin tumanining ulushi esa eng past – 2,3 % ni ko'rsatgan.

*Dastlabki ma'lumotlar*

**Tuman va shaharlар kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan, % da  
(2020- yil yanvar-avgust oylarida)**



Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Guliston (117,4 %), Yangier (95,1 %) shaharlari, Mirzaobod (96,0 %) va Guliston (94,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Nisbatan past o'sish sur'atlari Sayxunobod (55,7 %), Boyovut (84,4 %), Sardoba (86,6 %) va Oqoltin (91,9 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda, viloyatning har bir iqtisodiy tumani va shaharlaring barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Ko'rileyotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Guliston shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 255,6 mlrd. so'mga oshdi va 1145,1 mlrd. so'mga yetdi.

**Tuman va shaharlar bo'yicha ko'rsatilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yil yanvar-avgust oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1959,3</b>	<b>103,4</b>	<b>2305,9</b>
<i>shaharlar:</i>			
Guliston sh.	1145,1	117,4	12583,5
Shirin sh.	58,3	95,1	3098,9
Yangiyer sh.	124,9	95,1	2871,9
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut	62,9	84,4	484,4
Guliston	55,6	94,8	764,1
Mirzaobod	86,8	96,0	1177,9
Oqoltin	40,8	91,9	780,8
Sardoba	48,0	86,6	726,1
Sayxunobod	60,5	55,7	781,5
Sirdaryo	206,9	93,8	1609,0
Xovos	69,5	93,5	726,7

*Dastlabki ma'lumotlar*

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Sirdaryo (206,9 mlrd. so'm), Mirzaobod (86,8 mlrd. so'm), Xovos (69,5 mlrd. so'm) tumanlari va Yangiyer (124,9 mlrd. so'm) shahrida qayd etildi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va an'anaviy xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari hajmini oshishiga olib keladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining o'sishidagi asosiy omil moliyaviy xizmatlar 607,4 mlrd. so'mni (ko'rsatilgan xizmatlар jami hajmiga nisbatan ulushi 31,0 %), savdo xizmatlari 514,2 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 26,2 %), transport xizmatlari 313,6 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 16,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 116,8 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 6,0 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar 67,2 mlrd. so'mni (jami hajmiga nisbatan ulushi 3,4 %) tashkil etdi.


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor munosabatlari, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda.

*Dastlabki ma'lumotlar*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2020- yil yanvar-avgust oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1959,3</b>	<b>103,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	116,8	114,0
Moliyaviy xizmatlar	607,4	144,7
Transport xizmatlari	313,6	96,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>296,4</i>	<i>97,4</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	46,4	83,5
Savdo xizmatlari	514,2	85,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	44,7	91,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	67,2	97,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	32,3	96,6
Ijara xizmatlari	34,5	82,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	48,4	92,9
Shaxsiy xizmatlar	42,4	86,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	36,9	88,2
Boshqa xizmatlar	54,5	81,4

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining jamiga nisbatan ulushi, % da  
(2020- yil yanvar-avgust oylarida)**



Eng yuqori ulush moliyaviy xizmatlar (31,0 %), savdo xizmatlari (26,2 %), transport xizmatlari (16,0 %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (6,0 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan ulush sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (1,6 %), ijara xizmatlari (1,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,9 %) va shaxsiy xizmatlarda (2,2 %) kuzatildi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


**Savdo** – bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohadir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2020- yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 26,2 % ni tashkil etib, bu 514,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

### Savdo xizmatlari tarkibi, % da (2020- yil yanvar-avgust oylarida)

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismiga aniqrog'i 68,3 % ga to'g'ri keladi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 26,0 % ga yetdi.



*Dastlabki ma'lumotlar*

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar** – bu xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachilik xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (Internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

## Moliyaviy xizmatlar (2020- yil yanvar-avgust oylarida)

2020- yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 607,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 208,2 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 44,7 % ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da (2020- yil yanvar-avgust oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiylajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 95,1 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarning ulushi 3,8 % oralig'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiylajmivi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,1 % ni tashkil etadi.

**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Ma'lumki, fuqarolarni sifatli va arzon ta'lim bilan ta'minlash sezilarli darajada jamiyatning rivojlanishini va uning kelajagini belgilovchi vazifadir.

Mamlakatimizda bu soha nafaqat davlat siyosatining eng muhim va hal qiluvchi yo'nalishlaridan biri sifatida qaralibgina qolmay, balki ulkan yutuqlarni ham namoyish etmoqda.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2020- yil yanvar-avgust oylarida)



2020- yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 67,2 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,1 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar


Bugun respublikaning barcha hududlarida ixtisoslashtirilgan ilmiy va amaliy tibbiyot markazlarida kardiologiya, jarrohlik, ko'z mikroxirurgiyasi, urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, endokrinologiya, pulmonologiya va ftiziatriya, akusherlik va ginekologiya, pediatriya va boshqa sohalarda yuqori sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi - bu sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, tibbiy haydovchilar komissiyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-avgust oylarida)

2020- yil yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 1,3 mld. so'mga ko'payib, 32,3 mld. so'mga yetdi. Xizmatlar umumiyligi hajmida uning ulushi 1,6 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,6 % ni tashkil etdi.




Dastlabki ma'lumotlar

irdaryo viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining doimiy o'sishi kuzatilmogda. 2020-yil yanvar-avgust oylarida 2305,9 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 232,6 ming so'mga oshdi va o'sish sur'ati 101,4 % qayd etildi.

Aholi jon boshiga to'g'ri kelgan eng kichik hajm Boyovut (484,4 ming so'm), Sardoba (726,1 ming so'm) va Xovos (726,7 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, 2020- yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Guliston (115,1 %), Shirin (94,1 %) shaharlarda va Mirzaobod tumanida (93,4 %) qayd etildi.

## 2020- yil yanvar-avgust oylarida tuman va shaharlarda aholi jon boshiga ko'rsatkichlar





*Dastlabki ma'lumotlar*

Kelajakda xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish, samarali bandlikni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishning dolzARB masalasidir.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil, aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

***Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi***

***Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi***

***Tel: (67) 236-86-36***